



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

BADIIY MATNLARDA METAFORALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI (HAMID OLIMJON ASARLARI MISOLIDA)

Imamova Gulnora Talibovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy matnlarda qo'llanilgan metaforalarning ifoda xususiyatlari va ularning nazariy va amaliy ahamiyati, o'rganilishi badiiy matnlardagi leksik-semantik ma'nolari shoir Hamid Olimjon she'riyati misolida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: metafora, ma'no, leksik- semantik ma'no, ma'no ko'chish, sinekdoxa, metonimiya, emotsional- ekspressiv, nominativ, konnotativ.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МЕТАФОР В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ (НА МАТЕРИАЛЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХАМИДА ОЛИМДЖАНА)

Имамова Гульнора Талибовна

Джизакский государственный педагогический университет, преподаватель

Аннотация

В данной статье анализируются выразительные свойства метафор, используемых в литературных текстах, и их теоретическое и практическое значение, а также изучаются лексико-семантические значения в литературных текстах на примере поэзии поэта Хаида Олимджана.

Ключевые слова: метафора, значение, лексико-семантическое значение, перенос значения, синекдоха, метонимия, эмоционально-экспрессивное значение, именительный падеж, коннотативный падеж.

LEXICAL AND SEMANTIC FEATURES OF METAPHORS IN LITERARY TEXTS (BASED ON THE WORKS OF HAMID OLIMJON)

Imamova Gulnora Talibovna

Jizzakh State Pedagogical University, Lecturer

Abstract

This article analyzes the expressive properties of metaphors used in literary texts and their theoretical and practical significance, the study of lexical-semantic meanings in literary texts using the example of the poetry of the poet Hamid Olimjon.

Keywords: metaphor, meaning, lexical-semantic meaning, meaning transfer, synecdoche, metonymy, emotional-expressive, nominative, connotative.

Badiiy matn tilning estetik, emotsional-ekspressiv va obrazli imkoniyatlarini namoyon etuvchi murakkab lingvistik hodisa hisoblanadi. Unda so'zlar nafaqat o'zining bevosita nominativ ma'nosida, balki ko'chma, obrazli va konnotativ ma'nolarda ham faol qo'llanadi. Ayniqsa, metafora badiiy matnning ta'sirchanligini oshiruvchi, muallifning individual uslubini namoyon etuvchi hamda voqelikni obrazli ifodalashga xizmat qiluvchi muhim leksik-semantik vositalardan biridir. Metafora tilshunoslikda ma'no ko'chishining asosiy shakllaridan biri sifatida e'tirof etiladi. U predmet, hodisa, belgi yoki harakat nomining o'xshashlik asosida boshqa bir predmet yoki hodisaga ko'chirilishi natijasida yuzaga keladi. Bunday ko'chim orqali so'zning semantik imkoniyati kengayadi, nutqda yangi badiiy ma'no, emotsional bo'yoq va obrazlilik hosil bo'ladi. Shu jihatdan metafora faqatgina stilistik bezak emas, balki badiiy tafakkur, estetik idrok va muallif dunyoqarashini ifodalovchi muhim til birligi sifatida baholanadi.

O'zbek tilshunosligida metafora hodisasi, uning leksik-semantik tabiati, ma'no ko'chishidagi o'rni hamda badiiy matndagi funksional xususiyatlari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Metafora orqali so'zlar oddiy nomlash vazifasidan tashqari, tasviriylilik, baholash, emotsional ta'sir ko'rsatish va estetik mazmun yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayniqsa, she'riy matnlarda metaforalar obrazlilikni kuchaytiradi, lirik qahramon ruhiyati, tabiat manzaralari, insoniy kechinmalar va ijtimoiy-estetik qarashlarni chuqurroq ifodalashga xizmat qiladi. Hamid Olimjon she'riyati metaforik ifoda vositalarining boyligi, obrazlarning yorqinligi va xalqona badiiy tafakkur bilan uyg'unligi jihatidan alohida ahamiyatga ega. Shoir ijodida bahor, tabiat, sevgi, baxt, yoshlik, vatan va insoniy tuyg'ular metaforik birliklar orqali jonli, ta'sirchan va estetik jihatdan mukammal ifodalanadi. Uning she'rlarida "bahorning

quchog‘i”, “dala yuzi”, “zangor ko‘zlar”, “shudring bilan yuvilgan kiprik”, “sevgi bog‘i”, “vafo tog‘i” kabi metaforik birliklar oddiy tasvir emas, balki chuqur semantik va poetik mazmunga ega obrazlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur maqolada badiiy matnlarda metaforalarning leksik-semantik xususiyatlari Hamid Olimjon asarlari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda metaforaning so‘z ma‘nosini kengaytirishdagi o‘rni, uning emotsional-ekspressiv imkoniyatlari, nominativ va konnotativ ma‘no hosil qilishdagi vazifalari hamda shoir poetik uslubidagi badiiy-estetik ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, Hamid Olimjon she‘riyatida qo‘llangan metaforalar orqali tabiat, inson ruhiyati va lirik kechinmalarning obrazli ifodalanish xususiyatlari ochib beriladi.

O‘zbek tilshunosligida leksemalarning semantik xususiyatlarini anglash vositasi bo‘lgan metaforalarning o‘rganilishiga doir bir qancha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, U.S. Qobulova metaforani adabiy istiloh deb hisoblaydi hamda uni o‘xshatish (tashbeh)ning o‘xshatish vositalari tushib qolishi bilan farqlaydi.

Aristotel metaforani so‘zning hosila ma‘no berishi ko‘rinishlaridan biri deb hisoblab, badiiy fikrlashning o‘ziga xos vositalaridan biri deb ko‘rsatgan [Qarang: 1. 117].

“Nom ko‘chish asosida yangi ma‘no hosil bo‘lishi barcha mutaxassislar tomonidan e‘tirof etilsa-da, lekin nom ko‘chishga olib keluvchi hodisalar, ularning turi masalasidagi qarashlar turlicha. Ba‘zi ishlarda nom ko‘chishga olib keladigan hodisaning ikki turi ko‘rsatilsa, ayrim ishlarda bunday hodisalarning undan ko‘p turlari ko‘rsatiladi. Lingvistik adabiyotlarning ko‘pchiligida esa (ayniqsa, keyingi vaqtlarda nashr etilgan adabiyotlarda) nom ko‘chishga olib keluvchi hodisaning to‘rt turi keltiriladi: 1) metafora, 2) metonimiya, 3) sinekdoxa, 4) funksiyadoshlik” [2. 312–221].

Tilda nominativ ma‘noda stilistik bo‘yoqdan xoli bo‘lgan, ko‘chma ma‘noda esa yorqin emotsional-ekspressiv bo‘yoq kasb etuvchi juda ko‘p so‘zlar mavjud. Metafora ana shunday bo‘yoq hosil qiluvchi muhim vositalardan hisoblanadi. Ma‘lumki, ma‘noning o‘xshashlik prinsipi asosida ko‘chishi metaforaning muhim belgisini tashkil etadi. Biroq predmetlar yoki hodisalar orasidagi tashqi o‘xshashlik asosida ko‘chirilgan ma‘nolar (**taxtaning ko‘zi, derazaning ko‘zi, buloqning ko‘zi, stolning oyog‘i, tog‘ning beli, dutorning bo‘yni** va h.k.) bilan predmet (keng ma‘noda) va uning harakati nomlarining insonga nisbatan, uning tabiati va harakati belgilarini xarakterlashga mo‘ljallab ishlatilishi (**eshak, it, to‘ng‘iz, qo‘chqor, qo‘zichoq, bo‘taloq, ilon, chayon, lochin, bulbul, akillamoq, vakillamoq, sayramoq** kabi so‘zlarning metaforik qo‘llanishi) natijasida hosil bo‘luvchi ma‘nolar orasida katta farq bor.

Birinchi holda so‘zning metaforik qo‘llanishi bilan borliq hodisalarining ma‘lum bir tashqi belgi, xususiyatlarini obrazli anglatish taqozosi bilan sodir bo‘lgan. Obrazlilik esa har qanday metaforik qo‘llashga xosdir. Ikkinchi holda esa metaforik qo‘llangan so‘z nutq subyekti (so‘zlovchi)ning nutq obyektiga (bunda shaxs va uning harakati)ga nisbatan yorqin subyektiv emotsional-ekspressiv munosabatini ifodalaydi [3. 312–164].

Metafora (yunoncha — ko‘chirish). Bir predmetning nomini boshqa predmetga biror tomondan o‘xshashligini e‘tiborga olib ko‘chirish. Metafora so‘zning yangi ma‘nolari hosil bo‘lishida qatnashadigan asosiy omillardandir [4. 63].

Metafora tilning amaliy ehtiyoji tufayli nutq jarayonida so‘zning denotativ ma‘nolari asosida baholash qiyin bo‘lgan narsa, voqea, hodisa va ruhiy holatlarni konnotativ ifodalash yoki tasvirlash orqali vujudga keladigan ko‘chimdir. Ayrim hollarda esa metafora ijodkorning voqelikni emotsional-aqliy aks ettirish jarayonidagi topildig‘i sifatida tug‘iladi [5. 45-bet].

Metafora asosidagi ko‘chish uchun narsa, buyum, hayvonlar, hodisalar, rang-tus, ta‘m, shakl, harakatning o‘xshashligi asos bo‘lib xizmat qiladi. Biror yozuvchi yoki shoir yo‘qki, asarlaridagi badiiy niyatini, maqsadini metafora orqali yuzaga chiqarmagan bo‘lsa. Hamid Olimjon baxtni, bahorni kuylovchi she‘rlarida metaforadan lingvopoetik vosita sifatida unumli foydalangan.

Husn qo‘shib har kun husniga,
Tabiat chaqirar o‘z quchog‘iga;
Har kun kiyib yangi bir libos,
Chaqirar o‘zining yoshlik chog‘iga.
Bulbul sayrar, chumchuq chirqirar,
Xabar berar asli-zotidan,
Gulga qo‘nib qattiq so‘ylashar,
Qish paytining xotirotidan.
Tinim yo‘q, har nafas sep yozar,

Bahor yechib o‘z tugunchagin,
Tonggi kurtak, oqshomgi g‘uncha
Sahar turib ochar chechagin.
Dala yuzin qoplar chechak-gul,
Kulib chiqar yorib yer tagin,
Zangor ko‘zlariga to‘lar nur,
Shudring bilan yuvar kiprigin...
Bag‘ringga tort, quchoqla, bahor!
Jozibalar barchasi sening.
Ishga kirgan, gullagan chog‘i,
Sen yoshligi buyuk o‘lkaning [5. 18].

Shoirning “Bahor” nomli she‘rida an‘anaviy metaforalar: **yangi, qattiq** kabi belgi bildiruvchi, **quchoq, libos, sep, yuz, kiprik, ko‘z** kabi predmetlar nomini bildiruvchi, **chaqirar, kiyib, xabar berar, so‘ylashar, yozar** (yoymoq ma‘nosida), **yechib, ochar, kulib, chiqar, yorib, yuvar** kabi harakatni bildiruvchi metaforalardan emotsionallikni oshiruvchi vosita sifatida unumli foydalangan.

Dala yuzin qoplar chechak-gul,
Kulib chiqar yorib yer tagin,
Zangor ko‘zlariga to‘lar nur,
Shudring bilan yuvar kiprigin...

She‘rning ushbu satrlarida chechak-gulning barglari yashil bo‘lishi hammaga tanish holat, lekin hassos shoir buni alohida topilma bilan tasvirlaydi: **“Zangor ko‘zlariga to‘lar nur.”** Avvalo, yashil barglarni ko‘z metaforasi bilan bergan bo‘lsa, uning emotsionalligini kuchaytirish maqsadida **zangor** sifatini tanlagani mazmunning yanada ochilishiga olib kelgan. **“Shudring bilan yuvar kiprigin”** misrasida zangor ko‘zning atrofini kiprik egallashiga ishora bor hamda bu kiprik metafora hisoblanadi. Tahlilga tortganimiz **ko‘z, kiprik** metaforalari ham, garchi mumtoz adabiyotda ham uchrasa-da, Hamid Olimjon she‘rlarida o‘zgacha tasvir, originallikni ifodalashi tayin. Metafora ko‘chimga asoslanar ekan, unda so‘zning o‘z ma‘nosi bilan ko‘chma-yangi ma‘nosi orasida qandaydir o‘xshashlik bo‘lishi kerak. Metafora asosida to‘liq va qisqa o‘xshatish vujudga keladi. To‘liq o‘xshatishda to‘rt element: 1) o‘xshagan narsa; 2) o‘xshatilgan narsa; 3) o‘xshash sifat, belgi; 4) o‘xshatish qo‘shimchasi. Bu tip o‘xshatishlar **-day, -dek** affikslari bilan bir qatorda **xuddi, go‘yo, misoli, bamisoli, singari, kabi, yanglig‘** yordamchi so‘zlari vositasi bilan ham yuzaga keladi. To‘liqsiz o‘xshatishda yuqoridagi to‘rt element mavjud bo‘lmaydi. Bunda o‘xshagan narsa o‘rnida o‘xshatilgan narsa aytiladi [5. 23-bet].

Sevgi ko‘klarida uchuvchi lochin
Arshidan yiqildi va ko‘hna dunyo –
Butun armonlarni qul qilgan otash
O‘zi bo‘lib qoldi sevgiga gado.
(Ofeliyaning o‘limi)

Agar bog‘ingda gul bo‘lmoq mening-chun noravo bo‘lsa –
Ki, ming bor roziman qasringga duvol bo‘lsam.

Metaforaning ana shunday mohiyatini inobatga olgan holda professor R. Qo‘ng‘urov mana bunday deb yozgan: “Metaforani yashirin o‘xshatish deyish ham mumkin. Ammo u oddiy qiyosdan farq qiladi. Agar oddiy qiyos har doim ikki a‘zodan tashkil topsa (ya‘ni nima qiyos qilinadi, nima bilan qiyos qilinadi – qiyos qilinuvchi va qiyos qilinadigan predmet), metaforada faqat ikkinchi a‘zo – o‘xshatilgan narsa qoladi, o‘xshagan narsa tushiriladi, lekin u kontekstdan ochiq sezilib turadi, demak, metaforada tasvirlanayotgan predmet ana shu ikkinchi a‘zo orqali idrok qilinadi” [6. 149-bet].

Xayolimda bo‘lding uzun kun,
Seni izlab qirg‘oqqa bordim.
Och to‘lqinlar pishqirgan tunda,
Topib ber, deb oyga yolvordim.
Ishon bunga, seni doimo
Esga solur chiroyli tunlar,
Sho‘x yulduzlar, salqin saharlar,
Esga solur baxtiyor kunlar.
Toleyimning oshinasi sen,
Sen sevgimning ko‘kargan bog‘i.
Sening bilan birga iqbolim,

Ishonchimning sen vafo tog'i.
("Xayolimda bo'lding uzun kun")

Shoirning mashhur "Xayolimda bo'lding uzun kun" she'rida **sevgining bog'i, vafo tog'i** metaforalari, **och to'liqlar, chiroyli tunlar, sho'x yulduzlar, baxtiyor kunlar** birikmalaridagi belgi ifodalovchi metaforalar she'rning o'qishli bo'lishini ta'minlagan.

XULOSA

Hamid Olimjon she'rlarida qo'llangan metaforalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, metafora shoir poetik tafakkurining muhim ifoda vositalaridan biridir. Shoir metafora orqali oddiy narsa, belgi va harakatlarni faqat nomlash bilan cheklanmaydi, balki ularga yangi badiiy ma'no, emotsional-ekspressiv bo'yoq va estetik ta'sirchanlik yuklaydi. Natijada so'z o'zining odatiy leksik ma'nosi doirasidan chiqib, she'riy matnda yangi obraz, yangi ruhiy holat va yangi semantik mazmun hosil qiladi.

Hamid Olimjon ijodida metaforalar tabiat manzaralari, inson kechinmalari, sevgi, baxt, yoshlik va vatan tuyg'ularini obrazli ifodalashda faol qo'llanadi. Shoir "dala yuzi", "zangor ko'zlar", "shudring bilan yuvilgan kiprik", "sevgi bog'i", "vafo tog'i" kabi metaforik birliklar orqali voqelikni jonlantiradi, unga insoniy xususiyatlar baxsh etadi. Bu esa she'rning tasviriy imkoniyatini kengaytirib, o'quvchi ongida yorqin badiiy tasavvur hosil qiladi.

Metaforalar shoir she'riyatida nafaqat tasviriy vosita, balki lirik qahramon ruhiyati, muallif munosabati va badiiy g'oyani ifodalovchi semantik markaz sifatida ham namoyon bo'ladi. Ular orqali she'riy matnning emotsional ta'sir kuchi ortadi, obrazlar tabiiy va jonli tus oladi, o'quvchi qalbida estetik zavq uyg'otadi. Ayniqsa, Hamid Olimjon she'rlarida tabiat hodisalarining insoniylashtirilishi, sevgi va baxt tushunchalarining obrazli talqini metaforaning badiiy-estetik imkoniyatlari nihoyatda keng ekanini ko'rsatadi.

Shunday qilib, Hamid Olimjon she'riyatidagi metaforalar so'z ma'nosining kengayishi, ko'chma ma'no hosil bo'lishi, emotsional-ekspressivlikning kuchayishi va badiiy obraz yaratishda muhim lingvopoetik vosita hisoblanadi. Metafora shoir ijodida tilning nafaqat kommunikativ, balki estetik va ta'sirchanlik vazifasini ham yuzaga chiqaradi. Shu bois Hamid Olimjon asarlaridagi metaforalarni leksik-semantik jihatdan o'rganish o'zbek badiiy nutqining obrazlilik imkoniyatlarini, shoirning individual uslubini va milliy poetik tafakkur xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

11. Аристотель. Об искусстве поэзии. – Москва: Госполитиздат, 1957. – С. 117.
12. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 221–312.
13. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, [nashriyot ko'rsatilmagan]. – B. 164–312.
14. Olimjon H. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 2019. – B. 63.
15. Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi. – 1992. – B. 18.
16. Yo'ldashev M. Cho'lponning so'z sirlari. – 2004. – B. 149.